SANOAT QURILISH BANK

MAHSULOT PASPORTI

“SWIFT TIZIMI ORQALI JISMONIY SHAXSLARNING CHET EL VALYUTASIDAGI TO’LOVLARINI AMALGA OSHIRISH”

Mahsulot tavsifi va asosiy shartlari

Chakana biznes departamenti

Tranzaksion banking departamenti

1. Mahsulotning asosiy xususiyatlari:

	Ko‘rsatkich	Tavsif
1	To’lovni amalga oshiruvchi /to’lovni qabul qilib oluvchi	SWIFT xalqaro to’lov tizimi yordamida savdoga oid bo’lmagan tavsifdagi nosavdo xarakterdagi xizmat va mahsulotlarni (ish, xizmat) shartnomalari va jismoniy shaxslarning o’tkazmalari bo’yicha valyuta to’lovlarini amalga oshirish bo’lib hisoblanadi va uning ishtirokchilari: - O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari; - O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar; - chet elda doimiy yashash joyga ega bo‘lgan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasida vaqtinchalik turgan (18 yoshga to‘lgan muloqotga layoqatli) jismoniy shaxslar; - xorijiy davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan va faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar.
1.1	To‘lovchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar	- Jismoniy shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti, fuqaro identifikatsiya kartasi, yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi, harbiy xizmatchining harbiy guvohnomasi, O‘zbekiston Respublikasi norezidenti maqomini tasdiqlovchi hujjat; - norezident jismoniy shaxs tomonidan xorijga chet el mablag’lari jo’natilganda valyuta mablag’lari qonuniy yo’l bilan topilganligi to’g’risida hujjatlar; - nosavdo xarakterdagi xizmat va mahsulotlarni (ish, xizmat) amalga oshirish bo‘yicha shartnoma/yoki hisob-faktura (invoys).
1.2	To’lov summasi: (Diapazon sen)	Jismoniy shaxsga to’lov o’tkazmalari 100 mln. so’m ekvivalentda (22.10.2019й. №3РУ-573 “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni). Yuridik shaxslarga to’lovlar va xizmatlar shartnoma doirasida o’tkaziladi (31.08.2020y. 3281-s. O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari) Yuqori xavfli mamlakatlarda tranzaktsiyalar soni va hajmiga cheklov belgilangan (FATF) - oyiga bittadan ko'p bo'lmagan bitim va 35 ming AQSh dollar ekvivalentidan oshmasligi kerak.
1.3	Xizmat to’lovi (komissiya) va shartlari	Mijozning arizasiga asosan talab qilib olinguncha va boshqa omonat hisobvaraqlaridan hamda bank kartalardan Respublika tashqarisiga SWIFT orqali pul mablag‘larini o‘tkazish: 0.25% - lekin komissiya summasi minimum 450,0 ming so’m; SWIFT tizimi orqali o‘tkazma o‘tkazilgandan so‘ng mijoz arizasiga asosan o‘zgartirish kiritish /to‘lovni qaytarish: 0.25% - lekin komissiya summasi minimum 450,0 ming so’m; Jismoniy shaxslardan SWIFT operatsiyalari uchun olinadigan komissiya turi faqat OUR (operatsiya uchun barcha xarajatlar to'lovchining hisobidan) komissiya turidan iborat; SWIFT orqali kelib tushgan o’tkazmani jismoniy shaxslarning omonat hisobvaraqlariga va milliy yoki xalqaro plastik karta hisobvarag’lariga kirim qilish va naqd berish summadan 0,5%.
1.4	To‘lov muddati	1 ish kundan 3 ish kungacha (Bankka bog’liq bo’lmagan holatlar bundan mustasno).
2	Mijoz javobgarligi	Operatsiyada ishtirok etayotgan vositachi banklarning rekvizitlarini ingliz tilida to'g'ri ko'rsatishi, jumladan: - SWIFT/BIC kod - pul mablag'larini qabul qiluvchi bankning kodi;

		- benefitsiarning to'liq nomi; - benefitsiarning hisob raqami (IBAN formati)+ BIC; - bank muassasasi-vositachining rekvizitlari (BEN). - benefitsiarning to'liq manzilini to'g'ri ko'rsatish. Qonunchilikda taqiqlab qo'yilgan amaliyotlarni o'tkazmaslik; Chet el banki tomonidan "Komplayens" so'rovnomasi taqdim etilgan taqdirda barcha zarur ma'lumotlarni to'liq va to'g'ri taqdim qilish; Shartnoma/yoki hisob-fakturasi (invoys) asosida xizmat va mahsulotlar (ish, xizmat) uchun amalga oshirilgan to'lovlarning nosavdo xarakterga ekanligiga javobgar
2.1	Bankning javobgarligi	Bank mijoz tomonidan taqdim qilingan (ko'rsatilgan) rekvizitlari bo'yicha mablag'larni sotuvchining hisob raqamiga o'tkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. To'lov mablag'lari oldi-sotdi shartnomaga muvofiq o'tkazib berilgan hollarda, pul mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilish majburiyatini oladi. Shu o'rinda to'lovni qabul qilib oluvchining rekvizitlari va xarid qilinayotgan tovar va xizmatlar uchun javobgar emas.
3	To'lov birligi	AQSh dollari, Yevro, Shveysariya franki, Funt sterling, Yaponiya yenasi, Xitoy yuan va Rossiya rublida
4	Bank tomonidan qo'shimcha tekshiriladigan shartlar	Bank OOH, OFAC, EI, "kulrang" ro'yxatlari bo'yicha mijozning (jo'natuvchining) to'liq FISHni va to'lov oluvchining (yuridik shaxsning) to'liq nomini tekshiradi. Shuningdek EI (Evropa ittifoqi), AQSh, Buyuk Britaniyaning muntazam ravishda taqdim etadigan sanksiyalar ro'yxatiga mos kelishi tekshiriladi (to'g'ridan-to'g'ri kontragent va uning korrespondent banki rekvizitlari)
5	Qo'shimcha shartlar	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'tkazmalari bo'yicha rasmiy daromad manbai talab etilmaydi. Norezident jismoniy shaxs tomonidan xorijga chet el mablag'lari jo'natilganda valyuta mablag'lari qonuniy yo'l bilan topilganligi to'g'risidagi hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Ko'chmas mulkni sotib olish va sotish amaliyoti 17.12.2013y. 2536-s. "Kapital harakati bilan bog'liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi" nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

2. **SWIFT tizimi orqali quyidagi ommabop to'lovlarni qisqa vaqt oraligida va ishonchli tarzda chet el davlatlariga o'tkazish mumkin:**

   a. 100 million so'm ekvivalentigacha bo'lgan miqdorda jismoniy shaxslar o'rtasidagi o'tkazmalar; (22.07.2019y. "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 15-modda).
   b. shaxsiy ehtiyojlar uchun tovarlarga (xizmatlarga, ishlarga) haq to'lash;
   c. chet el turistik agentliklari yoki firmalarga pul o'tkazish (jismoniy shaxsning o'z nomiga berilgan invoys orqali va faqat o'z ehtiyoji uchun);

d. chet eldagi jismoniy shaxslarga pul mablag’larini o’tkazish;
e. chet eldagi davolanish xizmatlari uchun pul o’tkazish;
f. avtotransport yoki boshqa uskunalar (faqat o’z ehtiyoji uchun boshqa savdoga oid hollarda to’lov taqiqlanadi) xaridi uchun to’lovlar;
g. sudning, arbitrajning, shuningdek tergov organlarining va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qarorlari asosida pul mablag‘larini to‘lash;
h. ta’lim va ta’til paytida malaka almashish dasturlari uchun to’lovlar.